

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**ISLOMOVA MOXIRAXON INOMJONOVNA**

**O‘ZBEK ADABIYOTIDA QUSH OBRAZI TALQINLARI  
("Zarbulmasal" asari misolida)**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of Dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Islomova Moxiraxon Inomjonovna**

O‘zbek adabiyotida qush obrazi talqinlari (“Zarbulmasal” asari misolida) ..... 3

**Islomova Mokhirakhon Inomjonovna**

Interpretations of bird symbols in uzbek literature (in the example  
of “Zarbulmasal”) ..... 25

**Исломова Мохирахон Иномжановна**

Интерпритации образа птицы в узбекской литературе (на примере  
произведения “Зарбулмасал”) ..... 47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

List of published works

Список опубликованных работ ..... 53

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**ISLOMOVA MOXIRAXON INOMJONOVNA**

**O‘ZBEK ADABIYOTIDA QUSH OBRAZI TALQINLARI  
(“Zarbulmasal” asari misolida)**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan – 2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2439 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.namdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Jo'rayev Habibullo Abdusalomovich,**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Tojiboyeva Muqaddas Abduraximovna,**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Sulaymonov Mo'minjon Yusubjonovich,**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi 161. Tel: (99869) 228-85-01; faks: (99869) 228-85-02, e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi 161. Tel: (99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**N.M.Uluqov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, filol.f.d., professor

**I.O'Darvishov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

**F.I.Karimova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.  
(DSc), dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida majoziy – allegorik obrazlar qushlar mavzusi va ular bilan bog‘liq an‘ana, o‘ziga xoslik, qahramon ma‘naviyati muammolari, obrazlarning g‘oyaviy-estetik, badiiy funksiyasi kabi jihatlar qadimgi davrlardan to bugungi kungacha badiiyat tadqiqotchilarining doimiy diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa, qushlar obrazi simvolikasi, metaforizatsiyasi, qo‘llangan syujet voqeliklari mazmun-mohiyati tadqiqi bo‘yicha chiqarilgan xulosalar, qush obrazi talqinlari asosida dunyo xalqlarining badiiy-estetik qarashlarini umumlashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni aks ettirish darajasini ilmiy asoslash, amaliy ta‘sirini tadqiq etish muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Yozma adabiyotda badiiy tasvir, obrazlilik turlari hamda mavhum tushuncha yoki g‘oyalarni muayyan narsa, voqea va hodisalarni qush – ma‘juziy obrazlar orqali ifodalanishining o‘ziga xos tomonlarini o‘rganishda ham muhim va dolzarb zaruratlar yuzaga chiqmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida qushlar kulti bilan bog‘liq mifologik, ijtimoiy, falsafiy va diniy qarashlarni o‘rganish, badiiy asarlardagi majoziy-allegorik talqinlarni tadqiq etishga e‘tibor kuchayib bormoqda. Chunki, bunday asarlarning maydonga kelishi yozuvchidan yuksak mahoratni talab qilsa, ulardagi badiiyat sirlarining ilmiy-nazariy jihatlarini tadqiqi ham katta ilmiy tajriba va o‘ziga xos bosqichlarni talab etmoqda. Borliq jonzotlarining badiiy tasviri, obraz darajasiga ko‘tarish, ularning turlari, majoziy mavhum tushunchalar idroki yoki ifoda g‘oyalarining ma‘lum narsa, voqea va hodisa orqali tasvirlash, ularning badiiy xususiyatlarini o‘rganish muayyan millatning badiiy tafakkur tarzini va madaniyatini anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbek adabiyotida ham qushlar obrazining badiiy ijoddagi o‘rni, turli janrlardagi talqini, genezisi, estetik-tarbiyaviy mohiyati, majoziy-allegorik xususiyatlarini belgilash badiiy tafakkur tadrijida muhimdir. Voqelikni qushlar obrazi orqali tasvirlash qadimdan insoniyatga xos xususiyatlardan bo‘lib, bunday talqinlar xalqimizning mifologik tasavvurlari va diniy-e‘tiqodiy qarashlarini o‘zida mujassam etgan, hamda badiiy asarlarga ko‘chgan adabiy hodisa hisoblanadi. Muhammad Sharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida qush obrazi bilan bog‘liq mifologik, ramziy, allegorik tushuncha va tasavvurlar badiiy so‘z san‘atida keng ifoda etilganligini tadqiq etish bugungi adabiyotshunoslik taraqqiyoti tadrijida Gulxaniy adabiy merosining o‘rnini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Shu ma‘noda, “Hozirgi kunda xalqimizning ong-u tafakkurini yuksaltirish va shu orqali o‘zligimizni saqlab qolish, mamlakatimizni izchil taraqqiy ettirish uchun, avvalambor, adabiyot, madaniyat va san‘at sohalarini qo‘llab-quvvatlashimiz zarur”ligi<sup>1</sup> adabiyotshunoslik faniga ham nazariy tadqiqotlarni jahon andozalari darajasida olib borish majburiyatini yuklaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PF-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2022. – Б.

Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli "O'zbekistonning Yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-sonli "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2023-yil 20-apreldagi PQ-128-sonli "Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qonuni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon adabiyotshunosligida qushlar obrazi genezisi, mifologiya va folklor bilan bog'liq qush kulti borasida N.P.Ostroumov, V.Y.Propp, O.M.Ivanova-Kazas, M.Myager, S.V.Sokolov, E.F.Ishberdin, M.M.Ginatulin, K.Ibragimov, E.I.Safina, N.M.Kurbonxonovalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan<sup>2</sup>.

O'zbek adabiyotshunosligi, xususan, folklorshunoslik sohasida qushlar obrazining qo'llanilishi, ularning badiiy-estetik talqini K.Imomov, M.Jo'rayev, A.Musaqulov, Sh.Turdimov, D.O'rayeva, M.Rahmonovalar<sup>3</sup> ilmiy izlanishlarida bo'lsa, B.Valixo'jayev, Z.Mamadaliyeva, L.Mirzohidova, Y.Karimova,

<sup>2</sup> Остроумов Н.П. Народные сказки сартов // Сарты. Этнографический материал. – Ташкент: II Вып., 1892; Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. 2-ое издания. – Л.: Наука, 1986. – С.184-185; Иванова-Казас О.М. Мифологическая зоология. – СПб., 2004. – С. 263; Иванова-Казас О.М. Птицы в мифологии, фольклоре и искусстве. – Петербург: «Нестор-История», 2006. – С.172; Мьягер М. Эстонские названия птиц. автореф. дисс... канд. филол. наук. – Таллин, 1963. –С. 28; Соколов С.В. Этимология некоторых названий птиц в удмуртском языке // Вопросы финно-угорского языкознания. Выпуск 1У. – Ижевск, 1967. – С.189-197; Ишбердин Э.Ф. Названия домашних животных и птиц в башкирских говорах. автореф. дисс... канд. филол. наук. – Уфа, 1969. – С. 29; Ишбердин Э.Ф. Наименования птиц в башкирских говорах // Вопросы башкирского языкознания. – Уфа, 1973. – С. 154; Гинатулин М.М. К исследованию мотивации лексических единиц (на материале наименований птиц). автореф. дисс... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1973. – С.27; Ибрагимов К. Некоторые древнетюркские названия птиц и их параллели в современных тюркских языках // Советская тюркология. – Баку, 1974. – № 6. – С.37-47; Сафина Э.И. Названия птиц в татарском языке и их лексикографирование. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Казань, 2005. – С.24; Курбонхонова Н.М. Мифы о животных и птицах в фольклоре населения Горного Бадахшана: автореф. дисс... канд. филол. наук. – Душанбе, 2006. – С. 26.

<sup>3</sup> Имомов К. Ўзбек фольклорига Хумо куши // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2011. – 5-сон. – Б.21-24.; Жўраев М. "Анқо" образи талкинига доир баъзи мулоҳазалар. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2001. – 2-сон. – Б.52-54.; Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент: Фан, 2010; Турдимов Ш. Хабарчи рамзмлар // Халқ кўшиқларида рамз. – Тошкент: Фан, 2020. – Б.18-28; Ўраева Д. Мотам айтимида куш образи. – Педагогик маҳорат. – Бухоро. – 2004. – №2. – Б.48-51; Ўраева Д., Тўраева Л. Фитрат шеърларида кушлар образининг рамзийлаштирилиши // "Истиклол ва Фитрат" мавзусидаги анъанавий республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Бухоро, 2017 йил, 6-7 апрель. – Б. 13-16; Раҳмонова М. Ўзбек халқ афсоналарининг бадийати. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 63-66.

M.Rajabova<sup>4</sup>lar asarlardagi qush obrazlarining badiiy-estetik vazifasini turli rakurslarda o‘rganganligini kuzatamiz. Muhammadsharif Gulxaniy ijodi bo‘yicha dastlab olim R.Muqimov Gulxaniyning hayoti va adabiy faoliyatiga doir nomzodlik ishini yoqlagan<sup>5</sup>, akademik F.Ishoqov “Zarbulmasal” asarining ilmiy-tanqidiy matni bilan ishlab, uning til va janr xususiyatlari, g‘oyaviy mazmunini o‘zbek adabiyotshunosligida birinchi bo‘lib ilmiy tahlil qilgan asardagi qush nomlariga munosabat bildirgan<sup>6</sup>. V.Zohidov “Zarbulmasal”ning satirik uslubi xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liqligini o‘rgangan<sup>7</sup> bo‘lsa, olima S.Qodirova “Zarbulmasal” asaridagi maqollarning manbalari, rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etgan<sup>8</sup>.

O‘zbek tilshunosligida ham ornitonimlarning lisoniy tadqiqi Sh.Rahmatullayev, D.Bozorov, Sh.Nosirov, H.Nizomxonov, Z.Xolmanova, R.Normurodovlar tomonidan amalga oshirilgan<sup>9</sup>, biroq o‘zbek adabiyotida, xususan, “Zarbulmasal” asarida qush timsolining badiiy talqinlari monografik planda to‘la o‘rganilmagan.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Poetika muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o‘zbek adabiyotida qush obrazi talqinlarini tahlil etish asnosida Gulxaniyning “Zarbulmasal” asariga xos g‘oyaviy-falsafiy, badiiy-estetik jihatlarni tadqiq etishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

adabiyotshunoslikda qush timsoli genezisi, uning tadrijiy jarayon va takomil bosqichlarini o‘rganish hamda qush obrazi talqinlarida mifologik tasavvur, agiografik tushunchalarni tahlil etish;

<sup>4</sup> Валихўжаев Б. Навоийнинг “Лисон ут-тайр” асарида шеърлий минатюралар қайта ишлашдаги маҳорати. Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1976. - № 6. – Б. 35-41; Мамадалиева З. Алишер Навоийнинг “Лисон ут - тайр” дostonидаги рамзий образлар тизими: Фил.фан.номз... дисс. – Тошкент, 2011; Мамадалиева З. Қакнус тимсоли талқинлари./“Ёшлик” журнали. – 2010. – №6. – В.19; «Шарқ юлдузи». – 2013. – № 6.; Мирзохидова Л. XI-XII асрлар туркий адабиётида мажозий тасвир бадиияти. Фил. фан.фалс.докт... дисс. – Самарқанд, 2018; Каримова Ю. Алишер Навоийнинг “Лисон ут-тайр” дostonида поэтик тафаккур ва услуб масаласи. Фил. фан. б. фалс. докт... дисс. – Фарғона, 2023; Ражабова М. Навоий ижодида қушлар ва ҳайвонлар образининг халқона асосларда ифодаланиши. ФарДУ илмий хабарлари. – Фарғона, 2021. № 2. – Б. 74-79;

<sup>5</sup> Муқимов Р. Муҳаммадшариф Гулханийнинг ҳаёти ва адабий фаолияти. Фил.фан. номз. дисс.... Самарқанд, 1948.

<sup>6</sup> Исҳоқов Ф. “Зарбулмасал”даги қуш номларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1973. – № 1. – Б.43-50.

<sup>7</sup> Зоҳидов В. Ўзбек адабиёти тарихидан. – Тошкент, Ўзадабийнашр, 1961. – Б.б. 194-195./ Зоҳидов В. Ҳаётбахш бадиият тароналари. – Тошкент, 1975.

<sup>8</sup> Kodirova S. “Zarbulmasal” maqollari: semantik-struktural va tadrijiy takomilning qiyosiy tahlili. Fil. Fanl. b. Fals. doktori diss. ...avtoreferati. – Vuxoro, 2023.

<sup>9</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати I (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 600; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати II (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: Университет, 2003. – Б.600; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати III (форсча, тожикча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: Университет, 2009. – Б. 284; Базарова Д.Х. История формирования и развития зоологической терминологии узбекского языка (на материале названий птиц). – Тошкент: Фан, 1978. – С.224. Носиров Ш. Диалектал орнитологияга оид кузатишлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986. – № 4. – Б. 56-60; Низомхонов Х. Эски ўзбек тилида «булбул» маъносидаги сўзлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1993. – № 3. – Б. 67-71; Холманова З. «Бобурнома» лексикаси. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 176; Нормуродов Р. Қуш номлари билан алоқадор перифразалар // Ўзбек тилшунослиги XXI асрда (илмий-назарий анжуман материаллари). – Қарши: ҚаршиДУ нашри, 2008. –Б. 97-100; Нормуродов Р. Ўзбек тилида иккиламчи номинация. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 109-118.

o‘zbek folklori janrlarida ifodalangan qush obrazi bilan bog‘liq ma‘naviy-ma‘rifiy, axloqiy-ta‘limiy jihatlarni ochib berish;

adabiy aloqa va an‘analar asosida ijtimoiy-tarixiy voqelik hamda uning majoziy-allegorik talqinlarini asoslash;

Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridagi obrazlar tasnifi va tavsifini hamda asardagi oilaviy-maishiy, ijtimoiy-siyosiy muammolar ifodasini ochib berish;

badiiy vositalar va poetik usullarni qo‘llashi borasidagi muallif mahoratini ko‘rsatish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** “Zarbulmasal” asaridagi obrazlar tasnifi va tavsifi, asardagi oilaviy-maishiy, ijtimoiy-siyosiy muammolar ifodasi, badiiy vositalar hamda poetik usullarni qo‘llashda muallif mahorati kabi masalalarni tadqiq etish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, struktural, biografik metodlardan, tasniflash hamda ta‘riflash tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

genezis nuqtai nazaridan o‘zbek adabiyotidagi qush kulti bilan bog‘liq qadimiy qarashlarning mazmun-mohiyati, tarixiy-mifologik kelib chiqish asoslari, qushlarga aloqador e‘tiqodiy munosabatlarning mifologik, folklor va yozma adabiyotdagi poetik tadrijiy taraqqiyoti, talqinlardagi turli qirralar, obrazlantirilish masalalarining badiiy qonuniyat hamda tamoyillari asoslangan;

ijtimoiy-falsafiy qarashlar ifodasi, voqelik tasvirlarida qushlarning ramziy obraz sifatida tutgan o‘rni, qiyosiy talqinlari, asosan, ularning yo‘l ko‘rsatuvchi, ilohiy hikmatlar va saboqlarni yetkazuvchi vosita sifatida ramziy-majoziy qo‘llanish, muayyan g‘oyani yoritishdagi estetik vazifasi aniqlangan;

Gulxaniy mumtoz adabiyot an‘analarini davom ettirib, yangi allegorik obrazlar yarata olganligi, o‘z zamondoshlarini tasvirlashda tanqidiy-realizm uslubining ustuvorligi hamda o‘zbek masalchiligini yangilanish, rivojlanish bosqichiga olib chiqqanligi dalillangan;

“Zarbulmasal” asari muallifining ijtimoiy-siyosiy hayotga faol tanqidiy qarashlari, jamiyatdagi ijtimoiy kayfiyat, xalq boshqaruvi vakillarining bir-biriga va millatga munosabati, kofliktlar, xonlik davri siyosiy jarayonlari, xususan, Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligi o‘rtasidagi ziddiyatli vaziyatlar, ularning xalq hayotiga ta‘siri ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

qushlar obrazidan foydalanishning poetik taraqqiyot xususiyatlari mif-folklor-yozma adabiyot bosqichlarida ochib berilgan hamda qush obrazi talqinlariga doir mifologik tasavvur va agiografik tushunchalar yoritilgan;

adabiy aloqalar asosida muayyan davrlarga mansub ijtimoiy-tarixiy voqelik va uning majoziy-allegorik, badiiy-estetik talqinlari asoslangan;

Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridagi obrazlar tasnifi va tavsifi hamda asardagi oilaviy-maishiy, ijtimoiy-siyosiy muammolar ifodasi asoslangan, badiiy vositalar va poetik usullarni qo‘llashda muallif mahorati dalillangan.

“Zarbulmasal” asari orqali davrning siyosiy jarayonlari, xalq va hokimiyat o‘rtasidagi ziddiyatli keskinliklar, ularning jamiyat hayotiga ta’siri masalasi mumtoz badiiyat ifodalari ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo‘yilganligi, adabiyotshunoslikda qo‘llanilayotgan tadqiq usullari asosida tadqiqot maqsadiga mos ilmiy asoslangan nazariy xulosalar chiqarilganligi, nazariy ma’lumotlar rasmiy manbalardan, so‘nggi yillarda chop etilayotgan ilmiy adabiyotlardan olinganligi, fikrlar tavsiflash, tasniflash, tahliliy va qiyosiy metodlar vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi, tadqiqotchi tomonidan e’lon qilingan ilmiy ishlarda o‘z ifodasini topganligi hamda bu xulosalar ilmiy jamoatchilik tomonidan ijobiy tarzda baholanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek adabiyotshunosligida xalq va millat madaniyatini uning badiiyati vositasida o‘rganishning nazariy asoslarini o‘rgangan holda majoziy asarlarning matnlari, xususan, “Zarbulmasal” asaridagi qushlarning ijtimoiy-umumiy va individual-xususiy jihatlari aniqlanganligi, qushlar obrazi poetikasiga doir nazariy xulosalarni, tasavvurlarni kengaytirishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyadagi xulosa va talqinlardan oliy ta’lim muassasalari uchun “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Adabiyotshunoslik asoslari”, “Qiyosiy adabiyotshunoslik” kabi darslik va qo‘llanmalar yaratishda, ma’ruza va seminar mashg‘ulotlari mazmunini boyitishda, magistrlik dissertatsiyalari yozishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbek adabiyotida “Zarbulmasal” asari orqali qush obrazi talqinlarini tadqiq etish orqali olingan ilmiy natijalar asosida:

genezis nuqtai nazaridan o‘zbek adabiyotidagi qush kulti bilan bog‘liq qadimiy qarashlarning mazmun-mohiyati, tarixiy-mifologik jihatdan kelib chiqish asoslari, qushlarga aloqador e’tiqodiy munosabatlarning mifologik, folklor va yozma adabiyotdagi poetik tadrijiy taraqqiyoti, talqinlardagi turli qirralar, obrazlantirish masalalarining badiiy qonuniyat hamda tamoyillari asoslangan o‘rinlardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Namangan davlat universiteti bajarilgan FZ-201912099 raqamli “O‘zbek folklorining o‘zbek va ingliz tillarida veb sayti va multimedia mahsulotlarini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Namangan davlat universitetining 2025-yil 19-martdagi №12099-19/03-son ma’lumotnomasi). Natijada qushlar obrazining og‘zaki va yozma adabiyotda homiy ruhlar haqidagi qadimgi mifologik tasavvurtushunchalar, e’tiqodiy qarashlar bilan bog‘liqlikda talqin qilinishi, ramziy ma’nolari ko‘lamini ochishga xizmat qilgan;

Gulxaniy o‘zigacha bo‘lgan mumtoz adabiyot an’analarini davom ettirib, yangi allegorik obrazlar yarata olganligi, o‘z zamondoshlarini tasvirlashda tanqidiy-realizm uslubining ustuvorligi hamda o‘zbek masalchiligini yangilanish, rivojlanish bosqichiga olib chiqqanligi dalillangan fikr va xulosalardan

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Namangan davlat universitetida bajarilgan FZ-20190815110 raqamli “Kodeks kumanikus” qo‘lyozmasining elektron ilmiy izohli lug‘atini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Namangan davlat universitetining 2025-yil 2-apreldagi №15110-02/04-son ma’lumotnomasi). Natijada qushlar obrazining og‘zaki va yozma adabiyotda homiy ruhlar haqidagi qadimgi mifologik tasavvurtushunchalar, e’tiqodiy qarashlar bilan bog‘liqlikda talqin qilinishi, ramziy ma’nolari ko‘lamini ochishga xizmat qilgan;

“Zarbulmasal” asarida ijodkorning ijtimoiy-siyosiy hayotga faol tanqidiy qarashlari, jamiyatdagi ijtimoiy kayfiyat, xalq boshqaruvi vakillarining bir-biriga va millatga bo‘lgan munosabati, konfliktlar, umuman, xonlik davri siyosiy jarayonlari, xususan, Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligi o‘rtasidagi ziddiyatli vaziyatlar, ularning xalq hayotiga ta’siri ochib berilgan fikr-mulohaza va xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Mahalla” teleradiokanalida 2025-yilning birinchi choragida efirga uzatilgan “Bir asar tarixi” eshittirishini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Mahalla” teleradiokanalining 2025-yil 21-apreldagi № 25-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuv va eshittirishlarning badiiylik va ilmiylik jihati oshib, tinglovchi va tomoshabinlarning mumtoz asarlar xususiyatlariga doir bilim va tasavvurlari boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan 21 ta ilmiy ish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 5 ta respublika hamda 8 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, olti faslni o‘z ichiga oluvchi uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 119 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Qush timsoli genezisi: tadrijiy jarayon va takomil bosqichlari”** deb nomlangan. **“Mifologik tasavvurlar va folklorlarda qush obrazi talqinlari”** deb nomlangan birinchi faslda jahon va turkiy xalqlar mifologiyasidagi tafakkur talqini, dunyo xalqlarining qushlar bilan bog‘liq

e'tiqodi, marosimlari hamda urf-odatlari, folklor janrlarida qush timsolining genezisi o'rganilgan.

Folklor va badiiy adabiyotda qushlar obrazi alohida o'rin tutadi. Nafaqat turkiy xalqlar mifologik qarashlari, balki jahon xalqlari mifologik tasavvurlari ham qushlar bilan bog'liqdir. Chunki inson va tabiat doimo o'zaro bog'liqlikda bo'lgan. Tabiat ham insonning falsafiy va psixologik fikrlash tarziga o'z ta'sirini o'tkazgani tabiiy. Shuning uchun, qushlar jahon xalqlari mifologiyasida ham muhim ahamiyatga egadir. Ma'lumki, "mif – bu muayyan voqelik bayoni bo'lib, unda hikoya qilingan voqea-hodisa nechog'lik uydirma bo'lmasin, yaratilgan va yashab kelgan joyida u hamisha haqiqat, real voqelik ifodasi sifatida qabul qilingan"<sup>10</sup>.

Dunyoning yaratilishi haqidagi mif va afsonalarda qush kultiga alohida e'tibor qaratilgan. "Qush kultiga ishonch tufayli qadimda ayrim diniy-magik marosimlar tashkil qilinib, ularda qushlardan foydalanilgan. Qushlar osmon ilohlari, olov, suv ruhlari, quyoshning bir parchasi sifatida talqin etilishi an'anaga aylangan. Insonlar qadimdan ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik faoliyati bilan shug'ullanar ekan, qushlar harakatini bevosita kuzatib, yil fasllarini belgilash (laylak – bahor darakchisi, qarg'a – qish kelayotganidan xabar beruvchi va h.k.) tajribasini o'zlashtirganlar. Harbiy sohada esa qushlardan xabarchi sifatida foydalanilgan. Insonlarning qushlar bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlari ayrim antroponimlar (shaxs ismlari) va toponimlar (joy nomlari), ayrim urf-odatlarda ham namoyon bo'ladi"<sup>11</sup>. Jumladan, o'zbek xalq eposi "Alpomish"da Hakimbekning singlisiga Qaldirg'och ismining qo'yilishi qadimiy elatlarning e'tiqodiy qarashlarini ifoda etgan. Shuningdek, Lochin, Burgut kabi qushlar nomi bilan bog'liq antroponimlar ham bugungi kunda uchraydi.

Xalq orasida turlicha munosabatda bo'lib, adabiyotda o'zining badiiy ifodasini topgan yana bir qush boyo'g'li bo'lib, dunyo xalqlari folklorida boyqush obrazining turlicha talqinlari uchraydi. A.Jumayev o'z tadqiqotlarida Qadimgi Meksika, Xitoy, Misr, Yunoniston, Germaniya, Avstraliya, Amerikada boyqushga munosabat masalasini o'rgangan<sup>12</sup>. Ingliz adabiyotida boyqush ko'pincha o'lim hodisasi bilan bog'liqlikda talqin etiladi. Qadimgi yunon mifologiyasiga ko'ra "donolik ma'budasi Afina boyqushning katta-katta ko'zlari va viqorli ko'rinishidan ta'sirlanib, o'z yordamchisi bo'lgan qarg'ani saroyidan haydashi va o'rniga boyqushni yordamchi qilib olishi aytiladi. Yunon qo'shinlari boyqushni Afinaning timsoli bilib, uni turli urushlarda o'zlariga doimiy hamroh, madadkor sifatida olib yurishgan. Agar jang oldidan boyqush askarlar ustidan uchib o'tsa, bu bo'lajak jangda g'alabaga erishish belgisi sifatida qaralgan. Boyqushga shunchalik ishonch va ehtiromda bo'lgan yunonlar o'z tangalarining orqa qismida uning suratini aks ettirishgan. Tangalarda boyqush suratining aks ettirilishi savdo-sotiq ishlarining omadli va daromadli bo'lishiga ishonch bilan bog'liq bo'lgan. Qolaversa, yunonlar boyqushni kundalik hayotlarida ilhom bag'ishlovchi qush deb bilganlar"<sup>13</sup>.

<sup>10</sup> Стеблин-Каменский М.И. Миф. – Л.: Наука, 1976. – С.4-5.

<sup>11</sup> Жумаев А. Ўзбек ва немис эртақларида қушлар образи типологияси ҳамда спецификаси: Филол. фан. б. фалс. докт. дисс... автореф. – Бухоро, 2022. – Б.19.

<sup>12</sup> Жумаев А. Ўзбек ва немис эртақларида қушлар образи типологияси ҳамда спецификаси: Филол. фан. б. фалс. докт. дисс. ... автореф. – Бухоро, 2022. – Б.16.

<sup>13</sup> <https://www.owlpages.com/owl/articles.php?a=62> (murojaat sanasi 22.10.2024).

Qadimgi Rimda esa boyqush jasadi biror-bir noxushlik oldini olish yoki uni to'xtatish maqsadida xonadonlar eshigiga ilib qo'yilgan.

Boyqush obrazi turkiy xalqlar folklorida ham alohida ahamiyatga egadir. Bu obraz o'lim darakchisi, vayronagarchilik timsoli sifatida talqin qilinadi. Xalqimiz orasida boyqush sayragan yer vayronazorga aylanadi tarzidagi ishonch mavjud. Bu qush yomonlik keltiruvchi, tunda kimning xonadoniga kelib sayrasa, shu joydan o'lik chiqishiga sabab bo'luvchi qushdir, deb qaraladi.

Bizgacha yetib kelgan folklor namunalari, ayniqsa, ertak va maqollarda, latifa hamda matallarda muayyan shaxs obrazining allegorik-majoziy ifodasi xalq donishmandligi, zukkoligini aks ettirishda qo'l kelgan. Qush obrazlari vositasida xalq qahramonlari o'z salohiyatlarini namoyish etishlarida, ommaning dard-tashvishlarini baralla aytishlarida muhit bilan munosabatlari muayyan sahna rolini o'tagan, deyish mumkin.

Dunyo xalqlari tomonidan yaratilgan folklor namunalari muayyan xalqning urf-odatlarini, turli an'analarini, milliy qadriyatlarini, turmush tarzi, ruhiyati, fikrlash falsafasi aks etadi. Shunga muvofiq folklor etnografiya, psixologiya, falsafa kabi fanlar ham o'rganadi. Chunki folklor namunalari har bir xalq madaniyati va falsafasi tarixida muhim rol o'ynaydi. Masalan, xalqimiz qarashlariga ko'ra "turna uchib kelishi issiq kunlar boshlanganligining belgisi deb qaralgan"<sup>14</sup>. Qadim zamonlardan o'q xalqimiz turnalarning baland yoki pastga uchishiga qarab, yilning qanday kelishini, ya'ni issiq yoki sovuq kelishini taxmin qilishgan. Qadimiy ibtidoiy ajdodlarimizning qush totemiga e'tiqodi qushlarning obraz sifatida folklor namunalari kirib kelishiga sabab bo'lgan. O'zbek folklorining turli janrlarida qush obrazi va ular bilan bog'liq ma'naviy-ma'rifiy hamda axloqiy-ta'limiy jihatlarni kuzatilib, ularda, asosan, tarbiya, qadriyatlarni shakllantirish, insoniy tuyg'ularni ifodalash muhim rol o'ynaydi. Sehrli ertaklarda ko'p tasvirlanadigan laylak, qarg'a, qaldirg'och, bulbul kabi qushlar obrazi hayotiy asosga egaligi bilan ajralib turadi. Chunki bunday qushlar hayotda mavjud bo'lsa-da, sehrli ertaklar tarkibida keltirilganda ular ba'zan g'aroyib xususiyatli tarzda tasvirlanadi. Xususan, "Ur to'qmoq", "Oltin tarvuz" kabi ertaklarda laylak, "Ochko'z boy" ertagida o'rdak ertak qahramonlariga tilsim buyumlar bersa, "Oypari" ertagida qaldirg'och, "Xotam" ertagida kaptar tilga kirib, insondek gapiradi, shum kampir esa qora qarg'a ko'rinishiga evriladi. Mazkur qushlar obrazlarida ramziylik ifodalari xalq turmush tarzi bilan bog'liq. Ertaklarning an'anaviy boshlanma qismida ham qushlar obrazi o'ziga xos xususiyatlari orqali "... qirg'ovul qizil ekan, quyrug'i uzun ekan, qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, g'oz karnaychi ekan, o'rdak surnaychi ekan..." tarzida talqin qilinadi. M.B.Kenin-Lopsonning tapkidlashicha, tavaliklar mifologiyasiga ko'ra, qarg'a ba'zan shomonlar bilan yordamchi ruh o'rtasida aloqachi bo'lgan. "O'zbeklar ham qarg'aning qag'illashini biror yomonlik bo'lishiga tapbir qiladilar. Demak, ertakdagi qarg'aning qaqimchiligi ham mifologik tasavvurlar bilan bog'liq"<sup>15</sup>. Shomon marosimlarida ham qushlar alohida qayd etilgan. L.P.Potapovning fikricha, shomon childirmasida qarg'a, quzg'un, chumchuq, kakku kabi qushlar... hamda homiy-personajlarning

<sup>14</sup> Жўраев М. Наврўз байрами. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 229.

<sup>15</sup> Мусақулова А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент: Фан, 2010. – Б.254.

antropomorf tasviri tushirilgani qayd etilgan<sup>16</sup>. Turkiy xalqlar mifologik tasavvurlari, xususan, totem qushlarga bo‘lgan qadimiy ishonchlar qushlarning badiiy adabiyotga obraz sifatida kirib kelishida asosiy nuqta edi. Qush obrazi bosqichma-bosqich: magik-mifologik tasavvurlardan sekin-asta mifopoetik obrazga aylana boshlagan. So‘ng ijtimoiy-falsafiy qarashlar zaminida badiiy-estetik funksiyalarni bajargan. Zero, “folklor shunchaki so‘z san’ati namunasigina emas, balki xalqning til zahirasi, tushuncha va tafakkur tarzini bor bo‘y-basti bilan o‘zida aks ettirgan, olis o‘tmishdan to bugungi kungacha jonli holatda xalqning o‘zi bilan birga yashab kelayotgan doimiy harakatdagi tarixi va madaniyati hamdir”<sup>17</sup>. Qadimgi mifik qarashlar ta’sirida totem qushlar – g‘oz, o‘rdak, qaldirg‘och, laylak kabi o‘zbek xalq folklori janrlari obraziga aylangan. Bu mifopoetik hodisa o‘tmishdagi xalq turmush tarzi, madaniyati, ijtimoiy hayoti, olamni anglash tasavvurlari bilan bog‘liqlikda kechgan.

Bobning **“Qush timsolidagi diniy-e’tiqodiy tasavvurlarning badiiy-falsafiy ifodasi”** nomli ikkinchi faslida agiografik asarlar, xususan, Qur’on va qur’on qissalari asosida yozilgan “Qisasi Rabg‘uziy”, “Tarixi anbiyo va hukamo” asarlaridagi qush obrazlari tahlil qilindi.

Qushlar badiiy obraz sifatida dastlab, jahon xalqlari tafakkuri tarixida diniy-falsafiy, afsonaviy-mifologik tushunchalar asosida shakllangan bo‘lib, ular adabiyotshunoslikda agiografik xarakterdagi asarlar tarkibida ham uchraydi. “Agiografiya – anbiyolar, sahobalar (havoriylar), tobeinlar, chahoriyorlar, azizlar, avliyolar, tariqat pirlari, diniy rahnamolarning hayoti va faoliyatini o‘zida namoyon etuvchi badiiy jihatlari ustun bo‘lgan asarlar”<sup>18</sup>, bunday asarlar bevosita e’tiqodiy qarashlar bilan bog‘liqdir.

Voqelikni qush obrazlari orqali tasavvur qilish, tasvirlash, muammolarga yechim axtarish insoniyatga qadimdan xos bo‘lgan xususiyatlardan biridir. Ular Sharq va G‘arbda qadimdan rivojlangan<sup>19</sup>. Payg‘ambarlar, azizlar hayoti va hadislarida tasvirlangan voqeliklar mohiyatini agoigrafik adabiyot ijtimoiy hayot bilan qorishiq holda tasvirlab beradi. Har bir inson dunyoqarashida diniy-e’tiqodiy bilimlar o‘ziga xos o‘rin tutadi. U insonlarning his-tuyg‘ulari, irodasi va faoliyatini belgilaydi, ularni boshqaradi, shaxsning yashash tarziga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Darhaqiqat, bunday turdagi asarlar o‘zbek adabiyotining, xususan, sharq mumtoz tafakkurining katta qismini tasavvuf adabiyoti sifatida tashkil etadi.

Qushlar timsolining agiografik asarlardagi talqini haqida so‘z yuritishda, avvalo, Qur’oni karimda keltirilgan qushlar haqida aytib o‘tish joiz. Hech kimga sir emaski, Qur’oni karim o‘zining ilohiy ta’limotlari bilan o‘n to‘rt asrdan beri dunyodagi turli millat va elatlarga mansub halklarni axloqiy poklikka asoslangan turmush tarzini barpo etishga, jamiyatda adolat hukm surishiga, insonlar orasida o‘zaro hurmat va ehtiromni shakllantirib, ularni tinch-totuv, osoyishta hayot kechirishlariga da’vat etadi. Qur’on oyatlari zamiriga jo etilgan va qadimgi zamon

<sup>16</sup> Потапов Л.П. Шаманский бубен качинцев / Материальная культура и мифология. – Л.: Наука, 1981. – С. 134–135.

<sup>17</sup> Мирзаев Т, Турдимов Ш, М.Жўраев, Ж.Эшонкулов, А.Тилавов. Ўзбек фольклори. – Тошкент, 2020. – Б.10.

<sup>18</sup> Sayidolimov J. Agiografik asarlarning badiiy xususiyatlari va g‘oyaviy-falsafiy talqinlar (“Qisasi Rabg‘uziy” va “Tarixi anbiyo va hukamo” asarlari misolida). Fil. fan. b. fals. dokt. diss....avtoref. – Farg‘ona, 2024. – B. 12.

<sup>19</sup> Жаҳон адабиёти ва санъати қисқача қомуси // Жаҳон адабиёти. 2018. №2 – Б. 203.

xalklarining tarixidan hikoya qiluvchi ibratomuz qissalar mazmun va mohiyat jihatidan e'tiborlidir. Qur'on suralarining "Moida", "Naml", "Fil" kabi suralarida qushlar insoniyatga yaxshiliklar keltirib, yordam beruvchi mavjudotlar sifatida beriladi. Oyatlarda keltirilgan 28 ta payg'ambar<sup>20</sup>ning hayoti, faoliyatiga doir qissalar agiografik asarlar uchun muhim manba vazifasini o'tagan. Qalam ahlining, xususan, mumtoz ijodkorlarning yaratgan asarlariga asos bo'lib xizmat qilgan. Sharqning zabardast ijodkorlaridan Abdurahmon Jomiy, Firdavsiy, Rabg'uziy, Durbek va Navoiy kabi ulug'lar Qur'on qissalaridan ta'sirlanib, o'lmas badiiy asarlar yozib qoldirishgan. Mana shunday asarlarning voqeligi hamda g'oyaviy mazmunida qushlar yetakchi obrazlar hisoblanadi.

"Qisasi Rabg'uziy", "Tarixi anbiyo va hukamo" asarlarining shu kungacha mashhur bo'lishida "din – folklor – adabiyot" uchligining o'rni muhimdir. Asar tarkibidagi qissalarda qushlar haqidagi miflar qush obrazi talqinlaridagi agiografik tushunchalarni ham ifodalaydi. Masalan, "Qisasi Rabg'uziy" asarida bir qush obrazi beriladiki, uning so'zlari orqali muallif o'quvchiga ta'lim beradi. Bilamizki, Sulaymon a.s.ga Alloh taolo jumla mavjudotning tilini bilish va ularni boshqarish ilmini bergan, jumladan, qushlarning ham. Bir kuni payg'ambar boyqushdan nima uchun vayronada yashab, xalq orasiga kirmasligini, bug'doy yemay, suv ichmasligini so'radilar. Boyqush esa vayronaning meros qolgani, odam farzandining bir-biriga qilgan zulmini ko'rishni xohlamasligini, Odam a.s.bug'doy yeb gunohkor bo'lgani va Nuh a.s. qavmlari suvda halok bo'lganini aytdi. Hazrat Sulaymon yana so'radilar: " – Makoningda nima ish qilasan?"

– Ey odamlar, hammalaring o'lasizlar, o'lmasdan burun qiyomat tadorigini qilinglar, deyman"<sup>21</sup>. Muallif boyqush tili bilan nima demoqchi? E'tibor bersak, boyqush berayotgan javoblarda Odam a.s.ning taqiqlangan bug'doy donasini yeb gunohkor bo'lgani, jannatdan tushirilib, yer yuziga qanday kelib qolganidan to qiyomat kunigacha nima qilishi kerakligi, yer ahlining yo'qlikka yuz tutgan eng katta fojeasi tilga olingan. Asar muallifi insoniyatga nima uchun yaralganini ta'kidlayotgan Boyqush obrazini tanlashi tabiiy, chunki, dunyoning ko'zni qamashtiruvchi molidan, o'tkinchi hoyu-havasidan voz kechgan oriflar, odatda, uzlatda, nuragan kulbalarda arzimas kichik rizqqa qanoat qilib, kecha-yu kunduz ibodatda yashaganlar. Boyo'g'lining xalqdan qochib, xarobalarda yashashi, kunduz ko'zga tashlanmay, tunda sayrashi, go'yo shunga ishoradek tuyuladi. Ushbu kichik savol-javobda butun asarning mazmun-mohiyati, muallifning badiiy niyati aks etadi.

Shu bilan bir qatorda diniy manba va ilohiy mazmundagi adabiyotda tasvirlangan qushlar bilan bog'liq bunday holatlar badiiy adabiyotimizda insonlarga ta'lim berish yo bashorat qilish shaklida ham namoyon bo'ldi. Demak, agiografik tushunchalar asosida qushlar obrazi alohida ahamiyat kasb etgan. Kabutar, qarg'a, xo'roz singari parrandalarning ijtimoiy-mishiy hayotimizdagi o'rni genezisi ham bevosita agiografik adabiyot bilan bog'liqdir. Odamzot tafakkuri taraqqiy etgani sari atrof-olamni qaytadan anglab, voqea-hodisalarni kuzatib xulosa qila boshlagan. Mehnat faoliyati natijasida tabiat va olamni sekin-

<sup>20</sup> Қаранг: Ислом дини асослари. 1-китоб. – Тошкент, 1991. – Б. 9.

<sup>21</sup> Носируддин Бурхонуддин Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. – Тошкент, Ёшлар нашриёт уйи, 2018. – Б. 67.

asta o'zgartira olgan insonning badiiy tafakkuri ham taraqqiy etgan. Tabiatni bir qadar o'ziga bo'ysundira olgan inson yaratilajak asar markaziga o'zini qo'ya boshlagan.

Biz agiografik asarlarni, asosan, adabiy nuqtai nazardan o'rganamiz. Hayvon hamda qushlarga bo'lgan munosabatlarda ham diniy va dunyoviy qarashlarning qorishiqligiga duch kelamiz. Hadislarda ham bu haqida ta'kidlab o'tilgan. Abu Dovud va Nasoiy rivoyat qilgan hadisda yozilishicha, Rasululloh (s.a.v.) kabutarni hurmat qilgan va u Ka'ba atrofida uchib yuruvchi qush ekanini ta'kidlagan. Shuningdek, muqaddas tafsir kitoblarida ham qushlar ulug'langan bo'lib, Ibn Kafirning "Tafsir al-Qur'an al-Azim" kitobida burgut shunday ta'riflangan: "Burgut kuch, qudrat va yuksaklikni ifodalaydi". Bu tafsirda burgut asosan ramziy ma'noda talqin qilinadi. Burgutning bunday ramziy ma'nosi yaxudiylik manbalari Tavrotida ham keltirilgan bo'lib, unda "Burgut xudoning kuch-qudrati va himoyasi" tarzida ifodalangan.

Ijtimoiy turmushda ham biz bevosita e'tiqodiy qarashlarimiz asosida jonzotlarga munosabatda bo'lamiz va buning natijasida sinkretizm hodisasi yuzaga keladi. Chunki bunday diniy-e'tiqodiy qarashlar ijtimoiy-maishiy hayotimiz bilan uyg'unlikda bayon etiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Adabiy an'ana va ijodiy ta'sirlanish**" deb nomlanadi. Uning ilk fasli "**Ijtimoiy-tarixiy voqelik va uning majoziy-allegorik talqinlari**" tadqiqiga bag'ishlanib, unda qush obrazining timsol sifatida shakllanish tadriji va Gulxaniy ijodida adabiy an'analarning ta'siri o'rganildi.

Har bir davr o'zidan oldingi davr adabiyotida mavjud eng yaxshi jihatlarni o'ziga singdiradi va unga nimadir qo'shishga intiladi. Qolaversa, jahon adabiyotining noyob durdonalari, ularning o'ziga xos jihatlarini o'zlashtiradi. Bunday adabiy tajribalar falsafiy-estetik qarashlar, tasviriy vositalar, obrazlilik va uslubdagi rang-baranglikda aks etadi. Gulxaniy ijodi davrigacha Markaziy Osiyoda, xususan, o'zbek adabiyoti tarixida qushlar obrazi orqali majoziy-allegorik talqinlar, uning badiiy an'anaga aylanishi IX-X asrlarda shakllana boshlagan.

Ma'lumki, tasavvuf adabiyoti so'zni ramz va majoz orqali anglatishdan ta'lim beradi. Sharq mumtoz adabiyotida tasavvuf (majoz bilan ifodalash) adabiyoti o'z takomiliga yetmasdan, ya'ni X asrdayoq Ibn Sinoning "Hayy ibn Yaqzon" ("Uyg'oq o'g'li Tirik"), "Tayr qissasi" ("Qush qissasi"), "Salomon va Ibsol" kabi falsafiy qissalari majoziy uslubda yozilishining o'zi musulmon Sharqi adabiyotida obrazli fikrlash va so'zlashning o'rnini ko'rsatib beradi. Ibn Sinoning "Tayr qissasi" qissasida ma'lum bir qush alohida ta'kidlab ko'rsatilmagan, umumiy ma'noda qushlar bir guruh bo'lib harakat qiladi. Lekin ijodkor qushlar obrazi orqali inson hayotining mohiyatini anglashga undaydi.

XII-XIII asrlarda Yaqin va O'rta Sharqda keng tarqalgan diniy-tasavvuf ta'limoti bilan islom dini o'rtasidagi o'zaro aloqalar nisbati ularning har ikkalasini yagona konsepsiyaga birlashtirishni taqozo etgan. Ushbu taraqqiyot jarayonida ko'plab ijodkorlar o'z diniy-falsafiy qarashlari bilan tasavvuf adabiyotining shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Tasavvuf adabiyotining bu davrdagi vakili Abu Homid Muhammad G'azzoliy bo'lib, u tasavvuf falsafasini

islom dinining ilmlari bilan uyg'unlashtirdi. Imom G'azzoliy nazariy jihatdan Sharq falsafasi tarixida majoz orqali ilmiy-badiiy tasvirlash yo'lini boshlab berdi. Uning "Risolat ut-tayr" asari ham muallifning ana shu falsafiy konsepsiyasini o'zida to'liq mujassam etadi.

G'azzoliy Ibn Sino asarining syujeti va obrazlarini mutlaqo yangi g'oyaga safarbar qildirdi – tasavvufiy qissa yaratdi. Biroq bu qissalar orasida yana bir o'xshashlik bor edi, bu ham bo'lsa "har ikki faylasufning ramziy qissalarida badiiylik omili ikkinchi darajali hisoblanadi, ya'ni u asarda yetakchilik qilmaydi. Obrazlar faqat muallifning fikrini bayon etish uchun xizmat qildi. Ya'ni bu asarlar badiiy-falsafiy asarlar emas, balki falsafiy-badiiy risolalardir"<sup>22</sup>.

Lekin tafakkur taraqqiyoti rivojlanishda davom etadi, ushbu davrda yashab o'tgan, diniy-falsafiy qarashlarning majoziy ifodasining shakllanish jarayoniga o'ziga xos xissa qo'shgan tasavvuf olamining yirik namoyandasi Sulaymon Boqirg'oniy ijodida ham qush obrazlarining majoziy tarzda ifodalanishini kuzatamiz. Yassaviyshunos olim I.Mannopov Sulaymon Boqirg'oniy ijodiga izoh berar ekan, quyidagicha munosabat bildiradi "turkiy adabiyotda mavjud bo'lgan asarni qushlar tili bilan bayon qilish, zikr va zokirlikni majoziy obrazlar orqali badiiy talqin qilish ijodiy an'anasini birinchi bo'lib Sulaymon Boqirg'oniy tatbiq etdi. Ijodkor o'zining g'oyaviy-falsafiy ijod namunasini qushlar tili orqali bayon etib, yassaviylik she'riyatida yangilik yaratgan"<sup>23</sup>. Demak, adabiyotga qushlarning majoziy obraz sifatida kirib kelishi Markaziy Osiyoda tasavvuf adabiyotining shakllanishi bilan bog'liq ekanligini kuzatamiz.

O'zbek adabiyoti taraqqiyotida qushlarning majoziy ishtiroki dastlab, badiiy adabiyotda falsafiy g'oyalarni ilgari surgan bo'lsa, o'rta asrlarga kelib sof tasavvufona asarlarda aks etdi, ushbu taraqqiyot jarayoni takomillashib, Gulxaniy ijodida ijtimoiy-maishiy muammolarni allegorik talqinda aks etganini kuzatamiz.

Har bir ijodkor o'z faoliyati davomida adabiy aloqa va an'analarning yuksak namunalari o'zining badiiy tafakkuri doirasida iste'dodiga yarasha foydalana oladi. Bir qancha adabiy aloqa va an'analarni o'zida aks ettira olgan Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari badiiy-estetik qimmatini bilan o'zbek adabiyoti tarixida munosib o'ringa ega. "Zarbulmasal" bilan tanishganimizda asar kompozitsiyasida turkiy xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan maqol va matallarning o'rinli keltirilishi, hikoya ichida hikoya qo'llanilishi, qissadan hissa kabi sheriylar parchalarning berilishi, shuningdek, xalq askiyachiligi usulidagi zakiylik bilan yaratilgan adibning bir necha adabiy an'analarga novatorona munosabatda bo'lganini ko'rsatadi. Bu esa Gulxaniyning "Kalila va Dimna", "Ming bir kecha" kabi jahon adabiyoti durdonalari bilan birga sharq mumtoz poetikasining bir qancha diniy-falsafiy, tasavvufiy asarlarini puxta o'zlashtirganidan, o'zidan avvalgi so'z san'atkorlari merosidan yaxshi xabardorligidan dalolat beradi. Ba'zan muallif biror hikoyani mufassal bayon qilmay, uni to'la o'qish uchun kitobxonga manba ko'rsatadi. "Bu so'zning tafsilini bilay desang, Jomiyning "Silsilat-uz zahab" ("Oltin zanjirlar") asarini o'qi", deydi. Yoki Yapaloqqush Ko'rqushga

<sup>22</sup> Мамадалиева З. "Лисон ут-тайр" образлари: рамз ва мажоз олами. Монография. – Тошкент, 2021. – Б. 15.

<sup>23</sup> Mannopov I. Yassaviylik adabiyotining genezisi, takomillashuvi va badiiyati. Fil.fan.dokt. diss....avtoref. – Farg'ona, 2024. – B. 31.

javoban “Sen menga Kulang va Qarchig‘ay voqeasini hikoya qilursan, men ham Bino va Nobino hikoyatin bilurmen. Bu hikoya bayoni voqesini tilasang “Kalila va Dimna”din top”, deya hind eposini o‘qishga da‘vat etadi.

Bobning **“Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida obrazlar tasnifi va tavsifi”** nomli ikkinchi faslida “Zarbulmasal” asaridagi majoziy-allegorik obrazlar keng tahlilga tortiladi.

Mazkur asarda yaxshilik va yomonlik, ezgulik hamda munofiqlik haqidagi umumbashariy masalalar majoziy-allegorik tarzda ko‘tarib chiqilgan. Asar qahramoni taqdiri misolida muayyan davr muammolari, odamlar o‘rtasidagi munosabatlardagi murakkabliklar, muhit ta‘sirida chigallashgan taqdirlar haqida muayyan tasavvurlarga ega bo‘lish mumkin.

“Zarbulmasal” asarida allegorik obrazlar yetakchi mavqega ega. Gulxaniyning ushbu asarida eng yirtqich qushlardan tortib oddiy qushlargacha namoyon bo‘ladi, ba‘zan yo‘l-yo‘lakay yovvoyi hayvonlar maymun, tulki, uy hayvonlari tuya, bo‘taloq, eshak, hasharotlardan chayon kabi obrazlar ham asarda ko‘zga tashlanadi. Yapaloqqush asardagi yetakchi obrazlardan biri hisoblanib ko‘pincha ijtimoiy-siyosiy holatlarni yuzga keltirishga xizmat qiladi. Bu obraz orqali Gulxaniy o‘z so‘zidan qaytamaydigan, reallikni hisobga olmaydigan hukmdorlar obrazini gavdalantiradi. Yapaloqqushning o‘g‘li Kulonkir sulton shaxsiyatida ham qattiqo‘llikni ko‘rishimiz mumkin. Kulonkir sultonning keyingi o‘rinlardagi fikrlari uning ham mavjud tartiblardan chiqa olmaydigan shaxs ekanligini namoyon etadi. Asardagi muhim obrazlardan yana biri – Hudhud obrazi. Gulxaniygacha bo‘lgan davrda Hudhud ilohiy ishq sari yetaklovchi pir vazifasini bajargan bo‘lsa “Zarbulmasal”da asar mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda ijtimoiy muammolarga daxldor obraz sifatida gavdalantirilgan. Asardagi o‘ziga xos obrazlardan yana biri Kulonkir sultonning yordamchisi Kuykunak hisoblanadi. Kuykunak hukmron doiraga yaqin yurgan amaldorlar obrazini gavdalantirish uchun xizmat qiladi. Gulxaniy mazkur obrazni mukammal holda tasvirlashining sababi navkarlik davrida ulardan ko‘p aziyat ko‘rgan, ya‘ni o‘z xizmatiga munosib taqdirlanmaganligi haqida yuqorida aytib o‘tgan edik. Muallif Kuykunak obrazini asarga olib kirgan dastlabki o‘rinlaridayoq amaldorlarga xos bo‘lgan fe‘l-atvor, muomala va xatti-harakatlarni ochib beradi. Kordon (xazinachi)ham asardagi muhim obrazlardan biri hisoblanadi. Muallif Kordon obrazi orqali har ishni sinchiklab o‘rgangandan so‘ng boshqalar bilan maslahatlashib ish ko‘radi. Uning turli vaziyatlarda muammolarga yechim topishi va ikki tarafning manfaatlarini ko‘zlagan holda ish olib borishi bizningcha Gulxaniyning idealidagi amaldor qanday bo‘lishi kerak, degan savollarga javob Kordon obrazi orqali ko‘rsatib berilgan. Kordonning yordamchisi bo‘lgan Turumtoy obrazi ko‘proq muallifga xos xususiyatlarni namoyon etadi. Turumtoyga ta‘rif berilar ekan “jilov saqlamaydigan” obraz ekanligi ta‘kidlanadi.

“Zarbulmasal” asarida muayyan davr qahramonlari haqida yozilgan bo‘lsa-da, shoir unda yagona shaxsning turmush yo‘sini va xulq-atvoriga tegishli bo‘lgan xususiyatlarning oddiy tasvirini emas, balki shunday insonlar guruhining xatti-harakati, hayotiy faoliyatlari, ichki va tashqi qiyofasiga xos salbiy sifatlarni tanlab, ularni Boyo‘g‘li shaxsiyatida jamlab, uni satirik shaxsning badiiy portreti

darajasiga ko‘tarishga muvaffaq bo‘lgan. Haqiqatan, asarni o‘qir ekanmiz, XIX asrning birinchi yarmida tarix sahnasiga chiqa boshlagan tiplar timsolida namoyon bo‘lgan yuqori tabaqa vakillaridan biri ko‘z oldimizda gavdalanadi. Boyo‘g‘li o‘z manfaati yo‘lida iymonini yutgan kishilar timsolidir. Pul va mol to‘plash yo‘lida har qanday kasb va yumushdan qaytmaydi. Savdogarlikdan tortib, muttahamlikkacha bo‘lgan hunarlar sohibi bo‘lgan bu kimsa o‘z manfaati yo‘lida xilma-xil nayranglar ishlatadi, hiylalar ijod qiladi, o‘zini turli ko‘yga soladi, buqalamundek istalgan rang va tusga kira oladi.

Muallif jamiyatdagi bo‘layotgan voqealarga ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda masal orqali munosabat bildiradi. Gulxaniy an’anaviy allegorik obrazlarga murojaat qilgan holda asar yaratgan bo‘lsa-da, ijodiy niyatidan kelib chiqqan holda ularni boyitgan, natijada o‘quvchi yana bir bor bunday asarni o‘qir ekan, obrazlarning takrorlanmasligini angelaydi. “Masalda odamlarning hatti-harakatlari, fe‘l-atvorlari, qiliqlari, nuqsonlari, odat va kamchiliklari tanqid qilinib, kulgi ostiga olinadi. Masalda tanqidiy mazmun, kinoya, hajv ustuvor bo‘ladi”<sup>24</sup>. Allegorik obrazlar orqali bu kitobxonga yanada yaqindan tanishtiriladi. Shu sababli ham masallarda rang-barang mavzular, takrorlanmas obrazlarning mavjudligi bu janrda yaratilgan asarlarning keng omma, ya’ni kattalar bir qatorda kichik yoshdagi bolalarni ham o‘ziga jalb etishi bilan xarakterlidir.

1-jadval

### **“Zarbulmasal” asaridagi qush obrazlarining ijtimoiy mavqe jihatidan majoziy-allegorik tasnifi**

<b>Boyo‘g‘li</b>	O‘z manfaati yo‘lida iymonini yutgan kishilar timsoli
<b>Yapaloqqush</b>	O‘z so‘zidan qaytmaydigan, reallikni hisobga olmaydigan xukmdorlar obrazi
<b>Gunashbonu</b>	Ushbu qushning biologik tuzilishi va yashash tarziga nisbatan teskari, kinoya asosida yaratilgan obraz
<b>Kaykunak</b>	Xukmdor doiraga yaqin yurgan amaldorlar obrazi
<b>Ko‘rqush</b>	Murakkab obraz. Ushbu obraz orqali muallif jamiyat illatlarini ko‘rib anglagan, lekin yon-atrofidagilarga anglatolmagan shaxs obrazini yaratadi
<b>Qarg‘a</b>	Mehnatsiz tayyor boylikka intilgan shaxslar timsoli
<b>Kulonkir sulton</b>	Mavjud tartiblardan chiqa olmaydigan shaxs
<b>Hudhud</b>	Yaxshilikka da‘vat qiluvchi shaxs timsoli
<b>Kordon</b>	Har ishni sinchiklab o‘rganadigan, boshqalar bilan maslahatlashib ish ko‘radigan ishbilarmon shaxs
<b>Turumtoy</b>	Haqiqatni gapiradigan shaxs timsoli. Ushbu obrazda muallifga xos xususiyatlar ham namoyon bo‘ladi.

Muallif asarning umumiy mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda har bir maqol, matal, hikoya va masallarning xalqonaligini saqlab qolgan. Ya’ni o‘zigacha bo‘lgan masallarda voqea-hodisalar uzoq o‘tmishda yoki afsonaviy mamlakatlarda tasvirlansa, “Zarbulmasal”da barcha voqealar ijodkor yashab turgan zamonda bo‘ladi. Asarda insonlardagi nomaqbul ishlar qushlarni hayratga solgan bo‘lsa, ayrim o‘rinlarida qushlar tilidan keltirilgan hayvonlar haqidagi masallar asarning badiiyligini yanada oshirgan.

<sup>24</sup> Abdullayeva D., Tillaboyeva S. Masal bilan munozaraning mushtark va o‘ziga xos xususiyatlari // Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti “Ilmiy xabarnoma”si // 2010. 1-son. – B. 79.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Zarbulmasal” asarida g‘oyaviy-falsafiy, badiiy-estetik jihatlar**”, deb nomlangan. Bobning **“Oilaviy-maishiy, ijtimoiy-siyosiy muammolarning badiiy ifodasi”** nomli birinchi faslida **“Zarbulmasal”** asarining g‘oyaviy-falsafiy jihatlari ijtimoiy-siyosiy, maishiy talqinlari yoritildi.

Ijodkor asar yaratar ekan o‘z davri siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga faol munosabatda bo‘ladi. O‘z asari orqali jamiyatga oyna tutadi. Bu jarayonda muallif turli xil ramziy va majoziy obrazlardan foydalanishi, asariga singdirmoqchi bo‘lgan g‘oyalarini bir necha ko‘rinishdagi badiiy qoliplar, tasvir vositalari yordamida ifodalashi mumkin.

Ma‘lumki, **“Zarbulmasal”** asari voqealarini asosan ikki masala harakatlantirishi ma‘lum. Bular quda-andachilik mojarolari va mahr masalasi. Gulxaniy qudachilik mojarolarini tasvirlash davomida o‘sha zamondagi ijtimoiy munosabatlarni, milliy odatlarni, xususan, sovchilik, mahr so‘rash, xutba o‘qitish kabi rasm-rusmlarni ko‘rsatishga muvaffaq bo‘lgan. **“Asardagi Boyo‘g‘li, Yapaloqqush, Gunashbonu, Kulonkir sulton, Ko‘rqush shunchaki oddiy parrandalar bo‘lmay, balki o‘sha zamonda yashagan turli kishilarning ma‘lum xulq-atvorini o‘zida mujassamlashtirgan allegorik obrazlardir”**<sup>25</sup>. **“Zarbulmasal”** asarida jamiyatdagi juda ko‘p tasvirlangan munosabatlardan biri ijtimoiy tabaqalanishdir. Asarda Yapaloqqush Ko‘rqushni yoniga chaqirib uni sovchilikka jo‘natmoqchi ekanligini aytgandan so‘ng, ular o‘rtasida o‘zaro **“aytishuv”** bo‘lib o‘tadi. Dialoglarda Ko‘rqush Boyo‘g‘li va Yapaloqqush oilalari o‘rtasida tafovut borligi, kelinning qalini borasidagi talabga Yapaloqqushning kuchi yetmasligini ta‘kidlaydi. Bu fikr asarda Ko‘rqush tilidan aytilgan **“Bo‘l! Og‘iz bo‘lma oyoq bo‘l”, eshitmadingmuki, “oyoq yugurigi oshqa, og‘iz yugurigi boshqa”**... Sen kim, Boyo‘g‘lining eshigiga kishi yubormoq kim? Hech bilmasmusanki, **“teng-tengi birla, tezak qopi birla”**<sup>26</sup>. Yoki **“Sening ahvoling olamga ma‘lumdir. “Oyni etak birla yashursa bo‘lurmu?”**, **“Chumchuq semursa, botmon bo‘lurmu?”**, **“Olako‘zananak ola bo‘lsa ham, arslon bo‘lmas, olato‘g‘anoq olg‘ur bo‘lsa ham, ahvoli ma‘lum”**<sup>27</sup> parchalar orqali o‘sha davr amaldori va oddiy xalq vakili o‘rtasidagi ijtimoiy farqni ko‘rishimiz mumkin. Asarda personajlar tilidan juda ko‘plab hikoyatlar keltirilgan. Bu hikoyatlar asarning g‘oyaviy-badiiy qimmatini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari hikoyatlar orqali ijtimoiy-axloqiy masalalar yoritiladi, asar xalqchilligi ta‘minlanadi. Gulxaniy **“qoliplash”** usulidan ustalik bilan foydalanib, ularni asarning umumiy kompozitsiyasiga uzviy ravishda bog‘laydi, singdiradi”<sup>28</sup>. Masalan, Hudhud tilidan **“Maymun bilan Najjor”** hikoyati keltiriladi. Bu hikoyatda jamiyat a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlardagi ikki jihatga urg‘u berilganini ko‘rish mumkin. Birinchisi, ko‘zga tashlanib turgan jihat: har qanday vazifani yoki topshiriqni o‘sha soha mutaxassisiga ishonib topshirish kerakligi bo‘lsa, ikkinchi jihat Gulxaniy davri hunarmandchiligi, xususan hunar ahllariga bo‘lgan munosabatdir. Asarda Hudhud tilidan Ko‘rqushga qarata aytilgan: **“Bilmasmusankim: Yumruq bukulub sang bo‘lmas, echki yugurib lang bo‘lmas”**<sup>29</sup>, ya‘ni **“Musht bukilsa ham, tosh bo‘lolmaydi, echki yugursa ham,**

<sup>25</sup> Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 254

<sup>26</sup> Гулханий. Зарбулмасал. Нашрга тайёрловчи – Ишқоков Ф. Тошкент: Фафур Фулом нашриёти, 1974. – Б. 11.

<sup>27</sup> Гулханий. Зарбулмасал. Нашрга тайёрловчи – Ишқоков Ф. Тошкент: Фафур Фулом нашриёти, 1974. – Б. 12.

<sup>28</sup> Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 255.

<sup>29</sup> Гулханий. Зарбулмасал. Нашрга тайёрловчи – Ишқоков Ф. Тошкент: Фафур Фулом, 1974. – Б. 14.

cho‘loq bo‘lmaydi” parchasi orqali jamiyatdagi biror bir muhim ishni o‘z “usta”sichalik hech kim bajara olmasligi, uddalagan taqdirda ham mukammal bo‘lmasligi ta’kidlangan. Gulxaniy bu orqali ijtimoiy-siyosiy vaziyat, davlatning rivojlanishi yoki tanazzulga uchrashi, vazifa va topshiriqlarni, aniqroq aytsak, davlat lavozimlarini o‘z “egasi”ga topshirilishida ekanligini nazarda tutgan. Buning aksi bo‘lsa, amaldorlar ko‘proq boyishga harakat qilishi, saroyda aysh-u ishrat avj olishi, turli xil mantiqsiz harbiy yurishlar uyushtirilishi holatlari ko‘payadi. Ularning og‘ir yuki esa oddiy xalqning: dehqon, hunarmand, chorvadorning gardaniga tushadi, qashshoqlik avj oladi va davlat parokandalikka yuz tutadi. Gulxaniy yuqoridagi holatlardan o‘z masallari, hikoyatlari orqali jamiyatni ogoh bo‘lishga chaqiradi. Bunga qo‘shimcha, hikoyatdagi yana bir nuqta bu – hunar va hunar ahlini ulug‘lashdir.

“Zarbulmasal” asaridagi yana bir ijtimoiy-siyosiy jihati ham e’tiborimizni tortadi. Bizga tarixdan ma’lumki, elchilik va u bilan bog‘liq jarayonlar davlatlararo munosabatlarning kayfiyatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Elchilarning qanday kutib olinishining o‘ziyoq diplomatik munosabatlarning qay oqimda ketishini hal qilib bergan. Asardagi Kuykunak tomonidan Ko‘rqushning kutib olinish voqealari va undan keyingi jarayonlarda bunga ishoralar borligini ko‘rishimiz mumkin.

Asarni tadqiq qilgan ko‘plab adabiyotshunos olimlar “Zarbulmasal” asarining asosiy g‘oyalaridan biri o‘sha davr xonliklar o‘rtasidagi vayrongarchilikka asoslangan davlat siyosatini ko‘rsatish va uni ochib berishligini ta’kidlab keladilar. U davrda Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligi o‘rtasida muammoli hududlar bo‘lgan. Bunday hududlarni har ikki davlat ham o‘zining mulki ekanligini ta’kidlab kelishgan va bunday muammolarni qurol kuchi yordamida hal qilishga kirishishgan. Xususan, O‘ratepa masalasi ikki davlat munosabatlari keskinlashuviga, siyosiy tanglikka va oxir-oqibatda ko‘plab qirg‘inbarot urushlarga olib kelgan.

Ijodkor “Zarbulmasal” asari bilan o‘z davri adabiyoti uchun katta evrilish qildi. Asosan nazmda ijod qilinadigan, an’anaviy mavzulardan chetga chiqmaydigan adabiy jarayonda u yangi yo‘nalishda ijtimoiy-siyosiy, oilaviy-maishiy mavzularni ko‘tarib chiqdi. “Zarbulmasal”da Gulxaniyning teran fikrliligi, adabiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga bo‘lgan faol munosabati, o‘zi yashab turgan muhitda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar, jamiyatda qandaydir mavqeni egallab turgan shaxslarga bo‘lgan munosabati majoziy-ramziy qush obrazlari orqali o‘z aksini topgan.

Uchinchi bobning **“Badiiy vositalar, poetik usullarni qo‘llashda muallif mahorati”** deb atalgan ikkinchi faslida asar badiiyati mukammal, o‘ziga xos bo‘lishi uchun qo‘llanilgan badiiy san’atlar va ularning asar kompozitsiyasida tutgan o‘rni haqida fikr yuritiladi.

Muallifning lirik mahorati keltirilgan she’riy parchalarning xalqonaligi, asarda keltirilgan voqealarga hamohang tarzda bayon etilishi, badiiy san’atlardan samarali foydalanganligi, ulardagi Gulxaniyga xos badiiy topilmalar bilan boyitilganligi asarga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirgan. Gulxaniy ham o‘zigacha yaratilgan Sharq mumtoz adabiyotini sinchiklab o‘rganganligi hamda mavjud

an'analardan unumli foydalangani asarning ta'sir kuchini yanada oshirgan. Shu jihatdan "Zarbulmasal"da an'ana va izdoshlik yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bizga ma'lumki, "Zarbulmasal" asari nasriy yo'lda (hikoyatlar she'riy yo'lda ham yozilgan) bitilgan manba hisoblanadi. Gulxaniy ijod qilgan davrda badiiy ijod namunalari asosan nazmda (she'riy) yaratilar edi. Ijodkor o'z hayotiy tajribasida, ijodiy faoliyatida nazm, xususan g'azal janri voqea-hodisalarni atroflicha tasvirlay olmasligini, uning qat'iy adabiy an'analardan chetga chiqmasligini, g'azalning bosh mavzusi ishq va oshiqlik ekanligini anglab yetgan. Shuning uchun ham, Gulxaniy o'zining muhim ijtimoiy-siyosiy qarashlarini, xalq taqdiriga bo'lgan munosabatini nasrda ifodalashni maqsad qilgan va "Zarbulmasal" asarini yaratgan. "U orqali xonliklar o'rtasidagi siyosiy jarayonlar, tinimsiz kurashlar, qarama-qarshiliklar, ijtimoiy hayot badiiy obrazlar orqali asarga singgan va davr muhitini yoritgan"<sup>30</sup>. Xalq og'zaki ijodidan yaxshi xabardor bo'lgan, uning asosiy janrlaridan hisoblangan ertak va masal janrlarida ham voqea-hodisalar asosan allegorik obrazlar, xususan hayvonlar, qushlar va hashorotlar ustiga qurilishini bilgan, bundan tashqari feodal munosabatlar va diniy tafakkur tarzi hukmron bo'lgan, oddiy kishilarning haq-huquqini, manfaatini himoya qilib chiqishga qaratilgan har bir urinish tazyiqqa uchraydigan bir davrda Gulxaniydek adiblarning ma'rifatvarparlik qarashlarini, xalqchilik g'oyalarini targ'ib qilish uchun eng qulay badiiy shakllardan biri allegoriya edi.

Muallif o'zi yashab turgan davrga xos illatlarni badiiy jihatdan qayta ishlagan holda jamiyatga qaytaradi. Bu jarayonda Gulxaniy xalq og'zaki ijodida va ijtimoiy hayotda keng qo'llanilgan masal va naqlardan, hikmatli so'zlardan, maqollardan foydalangan holda zamona muammolarini qushlar tilidan bayon qiladi. "Masal, bu – insoniyatning jonivorlar haqidagi ilk ibtidoiy ertaklari bilan ulardan ancha keyin paydo bo'lgan maqol, matal va zamonaviy latifalar orasidagi muhim bir ma'juziy bekatdir. Uning yoshi ming yillar bilan o'lchanadi"<sup>31</sup>. Shu sababli ham muallif o'zigacha bo'lgan davrdagi bu turdagi asarlarni o'rgangan holda ularni takrorlamaydigan badiiy jihatdan yuksak bir asar yarata olgan. "Zarbulmasal" asarining mavzu jihatdan ko'p ma'noliligi, voqealarning rang-barang tasvirlanishi, qushlar tilidan keltirilgan munozaralar, savol-javoblar, hikoyalarda turli vositalardan samarali foydalanilganligi asar badiiyatini yanada oshirgan. Shu bilan bir qatorda nasr va nazmda ham ijodiy niyatdan kelib chiqqan holda birday yondoshganligini ko'rishimiz mumkin. Asarning nasriy qismidan keltirilgan voqealar bayonida nasriy shakldagi maqol va matallar keltirilsa, she'riy voqealar bayonida shu voqeani xulosalovchi nazmiy maqol va matallar qissadan hissa shaklida keltiriladi. Misol uchun sabr haqida Ko'rqush tilidan aytilgan quyidagi parchada buni ko'rishimiz mumkin:

Sabr bilan basta eshik kushod,  
Sabr bilan eranlar topdi murod.  
Sabr sening dardingga darmon bo'lur,  
Sabr bilan xor guliston bo'lur,

<sup>30</sup> Улжаева Х. Гулханий "Зарбулмасал"ида тарихий ҳақиқатнинг бадий талқини. – Б. 255. <https://journal.fledu.uz/uz/gulhanij-zarbulmasalida-tarihij/>

<sup>31</sup> Igor Klex. Masalning xazina dunyosi. (Tarj. M.Xudoyqulov). – Toshkent: Jahon adabiyoti, – № 3, 2020. – B. 48.

Sho‘ra zamin bog‘ ila bo‘ston bo‘lur.  
Basta eshik ochg‘usidir sabr, bil,  
Sabr qil-u, sabr qil-u sabr qil.

Yuqoridagi lirik parchadan so‘ng asar mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda va sabr haqidagi parchaga mos tarzda she‘riy maqol qo‘llaydi: “Va aytmishlarkim:

“Sabr qilsang, g‘o‘radin halvo bitar,  
Besabrlar o‘z ayog‘idi yitar”(9-bet).

Gulxaniyning yana bir poetik mahorati shundaki, asarda zullisonaynlik an‘anasidan foydalangan holda asar badiiyatini yanada oshirgan. “Zarbulmasal”da keltirilgan voqealar nasrda berilishi barobarida she‘riy parchalarga ham katta e‘tibor qaratilgan. Muallif tomonidan keltirilgan lirik namunalarning ko‘p qismi mumtoz Sharq adabiyotining zabardast ijodkorlari Jomiy, Navoiy va boshqalarning ijodidan iqtibos badiiy san‘atidan foydalangan holda tasvirlanayotgan voqealarga mos parchalar bilan boyitilgan. Iqtibos badiiy san‘atidan faqat she‘riy parchalardagi emas, balki nasriy voqealar rivojida ham keng foydalaniladi. Ahamiyatli jihati Gulxaniy ayrim ijodkorlardan farqli ravishda keltirilayotgan misollar qaysi tilda bo‘lsa, asarga shundayligicha olib kiradi. Bu orqali asar ta‘sirchanligi oshishi barobarida, o‘quvchi fors-tojik tildagi misollarni o‘zining saviyasi va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda tushunadi hamda estetik zavq oladi. Asarning boshidan to so‘ngiga qadar muallif tomonidan keltirilgan lirik parchalar yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi. Voqealar boshlanmasida Bo‘yo‘g‘lining qizi Gunashbonuni quyidagicha ta‘svirlaydi:

“Orazidin shams-u qamardur xijil,  
So‘zlaridin shahd-u shaker munfail.  
Hosili umri edi ul boyning,  
Oti Gunash bobu o‘shal oyning.”

Bu misralarda qizning yuzi Sharq quyoshidan ham go‘zal ekanligi va shu sababli Sharq quyoshi uning yuziga qul, oy esa uning yuzidan uyalar edi, deya ta‘riflanmoqda. Mazkur misralarning keltirilish “husni ibtido” badiiy san‘atini yuzaga keltirmoqda. “Husni ibtido – chiroyli boshlash, debocha ko‘rki, go‘zal muqaddima, nafis so‘zboshi ma‘nolarini mohiyat jihatidan ifodalovchi she‘riy san‘atdir. ...husni ibtido san‘ati bilan bezalgan bosh baytlar xoh u dunyoviy, axloqiy bo‘lsin, xoh ilohiy tasavvufiy talqinda bo‘lsin, fikr salmog‘i bilan ajralib turadi”<sup>32</sup>. Buning natijasida kitobxon asar mutolaasiga ruhan tayyorlanadi va boshqa narsalarga chalg‘imay o‘qishni boshlaydi. Husni ibtido san‘ati bilan bir qatorda Gunashbonuning chiroyi husni ta‘lil badiiy san‘ati orqali tasvirlanishi o‘quvchida asardagi voqealar rivoji uchun asos bo‘lgan qalin masalasi haqiqatdan ham jiddiy ekanligini namoyon etadi. Shundan so‘ng asosiy voqealar bayon etiladi. Gulxaniy voqealar rivojida turkiy tildagi she‘rlar bilan bir qatorda fors-tojik tilidagi misralarni keltirish orqali “Zarbulmasal”ning badiiyatini ham oshirgan. Bu jarayonda ijodkorning poetik mahorati yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Gulxaniyning poetik mahorati asarning xalqchilligini ta‘minlash barobarida keyingi avlod uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. “Zarbulmasal”da

<sup>32</sup> Vahob Rahmon. She‘r san‘atlari. – Toshkent: Sharq, 2020. – B. 149-150.

qo‘llanilgan badiiy san‘atlar esa uning ta‘sir kuchini yanada oshirgan. Majoziy obrazlar orqali tasvirlangan voqealarning real hayot bilan uyg‘unligi, xalqona tilda bayon etilishi, kundalik turmushda ishlatiladigan maqol va matallarning qushlar tili orqali keltirilishi asarning yashovchanligini ta‘minlagan. Salaflarga ergashish, ular boshlab bergan an‘anani davom ettirish hamda zamon talabidan kelib chiqqan holda o‘zi yashayotgan muhitga moslashtirish Gulxaniyning mohir so‘z ustasi ekanligini namoyon etgan.

## XULOSA

1. Dunyoning yaratilishi haqidagi mif va afsonalarda qush kultiga alohida e‘tibor qaratilgan. Bu esa mifologik qushlar obrazining yaratilishiga sabab bo‘lgan. Qadimgi mifik qarashlar ta‘sirida totem qushlar o‘zbek xalq folklori janrlari obraziga aylanganini kuzatamiz. Ushbu mifopoetik hodisa o‘tmishdagi xalq turmush tarzi, madaniyati, ijtimoiy hayoti, olamni anglash tasavvurlari bilan bog‘liqlikda kechgan.

2. Agiografik tushunchalar asosida qushlar obrazi alohida ahamiyat kasb etgan. Ular, asosan, yo‘l ko‘rsatuvchi, ilohiy hikmatlar va saboqlarni yetkazuvchi qushlar sifatida ramziy ma‘noda qo‘llangan. Qushlarning ijtimoiy-maishiy hayotimizdagi o‘rni, genezisi ham bevosita agiografik adabiyot bilan bog‘liqdir. Odamzot tafakkuri taraqqiy etgani sari atrof-olamni qaytadan anglab, voqea-hodisalarni kuzatib, xulosa qila boshlagan. Mehnat faoliyati natijasida tabiat va olamni sekin-asta o‘zgartira olgan insonning badiiy tafakkuri ham taraqqiy etgan.

3. Qushlar obrazi tasvirida adabiy aloqa va an‘ana masalalari ko‘p asrlik tarixga ega. Qushlar obrazining yozma adabiyotga majoziy-ramziy timsol sifatida Ibn Sino, Imom Homid G‘azzoliy, Sulaymon Boqirg‘oniy ijodidagi asarlardan boshlab kirib kelishi Gulxaniyning “Zarbulmasal”igacha bo‘lgan davr adabiyoti namunalarida minglab yillar tajribasi bilan o‘lchanadigan adabiy-madaniy an‘analarimiz izlari borligini ko‘rsatadi.

4. Har bir asardagi obrazlar tizimi asarning badiiyatini oshirishga xizmat qiladi. Allegorik obrazlar vositasida ijodkor ideallarining aks ettirilishi muayyan davr, muhit hamda zamon muammolarining yechimining berilishini ham ta‘minlaydi. Gulxaniyning poetik mahorati o‘zigacha bo‘lgan an‘analarni o‘rgangan holda, allegorik obrazlar bilan bir qatorda zamondoshlarining obrazini ochiq berishi masalchilikda yangilanishning boshlanishiga ham xizmat qildi.

5. Allegorik obrazlarning milliy xarakter jihatidan yoritib berilishi “Zarbulmasal”ning xalqchilligini ta‘minlagan. Voqealar rivojiga turtki bo‘lgan qalin masalasi orqali milliy koloritning namoyon bo‘lishi asardagi obrazlarning mazmun-mohiyatiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Qushlar va hayvonlar tilidan insonlarning xatti-harakatlari masal shaklida bayon etilishi muallifning ijtimoiy masalalarni yoritishiga imkon bergan.

6. “Zarbulmasal” asarida keltirilgan masal, hikoyat va naqllarda maslahat qilishdan ko‘ra, fosh qilish tamoyili ustunlik qiladi. Bunda XIX asr adabiy jarayoni uchun muhim bir yo‘nalishning - tanqidiy realizmning ruhini sezish qiyin emas. Ayniqsa, asarda keltirilgan ko‘plab hajviy parchalarda tanqidiy realizm ruhi yaqqol seziladi. Bunga qo‘shimcha, o‘sha davrdagi xalqning madaniy saviyasi, urf-

odatlari, etnografiyasi va kayfiyati tasvirlari ham asarning o'ziga xos organalligini ta'minlagan.

7. Gulxaniyning Sharq mumtoz adabiyoti bilan yaqindan tanish ekanligi, turkiy va fors-tojik manbalarini yaxshi o'zlashtirgani, shoirlar asarlaridan parchalar keltirilishi, ularning asarlariga ishoralarning mavjudligi asar badiiyatini oshirgan.

8. Muallifning poetik mahorati ushbu asarda ikki tilda birdek foydalanishdan tashqari, husni ibtido, tashbeh, husni ta'lil, peyzaj, iqtibos kabi badiiy vositalardan mohirona foydalanganligida aks etib, asarga ishonchlilik, ta'sirchanlik va hayotiylik bag'ishlagan.

9. "Zarbulmasal" muallifning o'z davri ijtimoiy-siyosiy holatiga faol munosabatidir. Bu munosabatni shartli ravishda ikkiga bo'lish mumkin: birinchisi, jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy kayfiyat, xalq vakillarining bir-biriga bo'lgan o'zaro munosabati va konfliktlari bo'lsa, ikkinchisi, xonlik davri siyosiy jarayonlari, ular orasidagi o'zaro ziddiyat hamda keskinliklarning xalq hayotiga bevosita ta'siri masalasidir.

10. O'zbek adabiyoti taraqqiyotida qushlarning majoziy ishtiroki dastlab badiiy adabiyotda falsafiy g'oyalarni ilgari surgan bo'lsa, o'rta asrlarga kelib sof tasavvufona asarlarda aks etdi, ushbu taraqqiyot jarayoni takomillashib, Gulxaniy ijodida ijtimoiy-maishiy muammolarning allegorik talqinda aks etganini kuzatamiz. "Zarbulmasal" asari qush obrazlari vositasida shaxs va jamiyat munosabatlarini chuqur tadqiq etish, ma'lum xarakterlarning ijtimoiy muhitga munosabat va aloqalarini ilmiy tekshirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING OF THE SCIENTIFIC  
DEGREES PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04  
AT NAMANGAN STATE UNIVERSITY**

---

**NAMANGAN STATE UNIVERSITY**

**ISLOMOVA MOKHIRAKHON INOMJONOVNA**

**INTERPRETATIONS OF BIRD SYMBOLS IN UZBEK LITERATURE  
(in the example of *Zarbulmasal*)**

**10.00.02 – Uzbek Literature**

**ABSTRACT  
of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on PHILOLOGICAL SCIENCE**

**Namangan – 2025**

**The them of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation is registered by Supreme Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under the number B2022.2.PhD/Fil2439.**

Dissertation was carried out at Fergana State University.

The abstract of the PhD dissertation was in three (uzbek, english, russian (resume)) languages on the website at ([www.namdu.uz](http://www.namdu.uz)) and on the website of «Ziyonet» Information and Education Portal at ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Scientific director:** **Jo‘rayev Khabibullo Abdusalomovich,**  
Doctor of Philology, Professor

**Official opponentlar:** **Todjiboeva Mukaddas Abdurakhimovna,**  
Doctor of Philological Sciences, Professor

**Sulaymonov Momindzhon Yusubdzhonovich,**  
Candidate of Philological Sciences, Associate Professor

**Leading organisation:** **Gulistan State University**

The defence of the dissertation will be held on "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ 2026, at \_\_\_\_\_, at the meeting of the Scientific Council PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 of Namangan State University. (Address: 160107, Namangan city, Boburshoh street, 161. Phone: (99869) 228-85-01; faks: (99869) 228-85-02; e-mail: info@namdu.uz.).

The Dissertation can be looked through in the Information Resource Center of Namangan state university (registered with No. \_\_\_\_\_). (Address: 160107, Namangan city, Boburshoh street 161, Tel: (99869) 228-85-01).

The abstract of the dissertation was distributed on "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ 2025.  
(Registry record No. \_\_\_\_\_ dated "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ 2025).

**N.M.Uluqov**  
Chairman of the Scientific Council  
awarding scientific degrees, Doctor of  
Philological sciences, professor

**I.U.Darvishov**  
Scientific Secretary of the Scientific  
Council awarding scientific degrees,  
Doctor of Philosophy on Philological  
sciences (PhD), associate professor

**F.I.Karimova**  
Chairman of the Scientific Seminar under  
the Scientific Council awarding scientific  
degrees, Doctor of Philological sciences  
(DSc), associate professor

## INTRODUCTION (Abstract of the (PhD) dissertation)

**Relevance and necessity of the dissertation topic.** In world literary studies, aspects such as the theme of bird symbols and the associated traditions, uniqueness, problems of the hero's spirituality, and the ideological-aesthetic and artistic functions of bird symbols from ancient times to the present have been the focus of constant attention from researchers. One of the important questions is the generalization of the artistic-aesthetic views of the people of the world based on interpretations of bird symbols, the scientific justification of the level of reflection of universal human values, and the conclusions drawn from the study of symbolism, metaphorization of bird imagery, and the content and essence of the plot realities they use.

In world literary studies, there has been an increased focus on the interpretations of mythological, social, philosophical, and religious views related to the cult of birds and the study of figurative-allegorical interpretations in poetic language. This is because the study of the creative features of such novels plays an important role in understanding the poetic language and culture of a specific nation.

In Uzbek literature, defining the place of bird symbols in artistic creativity, their interpretations in various genres, genesis, aesthetic-educational essence, and figurative-allegorical features are important in the evolution of poetic thought. Depicting reality through the bird symbol has long been a characteristic feature of humanity, and such interpretations are a literary phenomenon that embodies the mythological representations and religious views of our people, which have transitioned into artistic fables.

The study of how mythological, symbolic, and allegorical concepts and representations associated with the image of a bird are widely expressed in the art of the world in Mukhammad Sharif Gulkhani's *Zarbulmasal* serves to demonstrate the place of Gulkhani's literary heritage in the development of modern literary studies. At this point, the fact that "currently, to raise the consciousness and thinking of our people and thereby preserve our identity and the consistent development of our country, it is primarily necessary to support the fields of literature, culture, and art"<sup>1</sup> imposes an obligation on literary studies to conduct theoretical research at the level of world standards.

This dissertation, to a certain extent, contributes to the implementation of the tasks outlined in the following decrees, resolutions, and other relevant normative legal documents: Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan No. PF-2789 dated February 17, 2017, "On Measures to Further Improve the Activities of the Academy of Sciences, the Organization, Management, and Financing of Scientific Research"; Presidential Decree No. PF-5847 dated October 8, 2019, "On Approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030"; Presidential Decree No. PF-6108 dated November 6, 2020, "On Measures for the Development of Education, Upbringing, and Science in the New Era of Development of Uzbekistan"; Presidential Decree

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: O'zbekiston, 2022.

No. PF-6198 dated April 1, 2021, “On Improving the State Management System for the Development of Scientific and Innovative Activities”; Presidential Decree No. PF-60 dated January 28, 2022, “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026”; Presidential Resolution No. PQ-128 dated April 20, 2023, “On Measures to Accelerate the Comprehensive Development of the Education System by Improving the Quality of Scientific, Methodological, and Research Fable”; Presidential Resolution No. PQ-2909 dated April 20, 2017, “On Measures to Further Develop the Higher Education System”; and other relevant normative-legal acts related to this activity.

**Relevance of the research with the main priority directions of development of science and technology in the republic.** The dissertation was carried out in the frameable of the priority direction II of the development of science and technology in the republic: “Formation of a system of innovative ideas and ways to implement them in the social, legal, economic, cultural, and spiritual-educational development of an information society and a democratic state”.

**The extent of analysis of the problem.** In world literary studies, the genesis of bird symbols and the cult of birds, associated with mythology and folklore, have been researched by N.P.Ostromov, V.Ya.Prop, O.M.Ivanova-Kazas, M.Myager, S.V.Sokolov, E.F.Ishberdin, M.M.Ginatulin, K.Ibragimov, E.I.Safina, and N.M.Kurbonkhonova<sup>2</sup>.

In Uzbek literary studies, particularly in the study of folklore, K.Imomov, M.Dzhuraev, A.Musakulov, Sh.Turdimov, D.Uraeva, and M.Rakhmonova<sup>3</sup> expressed their opinions using the bird symbol and its artistic-aesthetic interpretation. B.Valikhodjaev, Z.Mamadaliyeva, L.Mirzokhidova, Yu.Karimova, and M.Rajabova<sup>4</sup> studied the artistic-aesthetic function of bird symbols in novels

---

<sup>2</sup> Остроумов Н.П. Народные сказки сартов // Сарты. Этнографический материал. – Ташкент: II Вып., 1892; Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. 2-ое издания. – Л.: Наука, 1986. – С.184-185; Иванова-Казас О.М. Мифологическая зоология. – СПб., 2004. – С. 263; Иванова-Казас О.М. Птицы в мифологии, фольклоре и искусстве. – Петербург: «Нестор-История», 2006. – С.172; Мягер М. Эстонские названия птиц. автореф. дисс... канд. филол. наук. – Таллин, 1963. –С. 28; Соколов С.В. Этимология некоторых названий птиц в удмуртском языке // Вопросы финно-угорского языкознания. Выпуск 1У. – Ижевск, 1967. – С.189-197; Ишбердин Э.Ф. Названия домашних животных и птиц в башкирских говорах. автореф. дисс... канд. филол. наук. – Уфа, 1969. – С. 29; Ишбердин Э.Ф. Наименования птиц в башкирских говорах // Вопросы башкирского языкознания. – Уфа, 1973. – С. 154; Курбонхонова Н.М. Мифы о животных и птицах в фольклоре населения Горного Бадахшана: автореф. дисс... канд. филол. наук. – Душанбе, 2006; Гинатулин М.М. К исследованию мотивации лексических единиц (на материале наименований птиц). автореф. дисс... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1973. – С.27; Ибрагимов К. Некоторые древнетюркские названия птиц и их параллели в современных тюркских языках // Советская тюркология. – Баку, 1974. – № 6. – С.37-47; Сафина Э.И. Названия птиц в татарском языке и их лексикографирование. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Казань, 2005. – С.24; Курбонхонова Н.М. Мифы о животных и птицах в фольклоре населения Горного Бадахшана: автореф. дисс... канд. филол. наук. – Душанбе, 2006.

<sup>3</sup> Имомов К. Ўзбек фольклорида Хумо қуши // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2011. – 5-сон. – Б. 21-24.; Жўраев М. “Анқо” образи талқинига доир баъзи мулоҳазалар. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2001. – 2-сон. – Б.52-54.; Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент: Фан, 2010; Турдимов Ш. Хабарчи рамзмлар // Халқ қўшиқларида рамз. – Тошкент: Фан, 2020. – Б.18-28; Ўраева Д. Мотам айтимларида қуш образи. – Педагогик маҳорат. – Бухоро. – 2004. – №2. – Б.48-51; Ўраева Д., Тўраева Л. Фитрат шеърларида қушлар образининг рамзийлаштирилиши // “Истиқлол ва Фитрат” мавзусидаги анъанавий республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Бухоро, 2017 йил, 6-7 апрель. – Б. 13-16; Раҳмонова М. Ўзбек халқ афсоналарининг бадиияти. – Тошкент: Фан, 2009. – Б.63-66.

